

## Ruhiyatshunos maslahati

2020-yil 01-dekabr kuni soat 13:30 da 1-ma'ruzalar zalida "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti 1-bosqichga qabul qilingan talabalari bilan Institut psixologi Muhammedova Muhayyo Kamolxonovna bilan uchrashuv o'tkazildi. Tadbir fakultet dekani B.Hasanov kirish so'zi bilan ochib berib, 1-bosqich talabalarini Institut ichki-tartib qoidalari, fakultetda tashkil etilayotgan o'quv jarayoni mazmun-mohiyati, oraliq va yakuniy nazoratlar boshlanishi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi va talabalarga o'dob-axloq qoidalari to'g'risida tushuntirish olib bordi. Institut psixologi Muhayyo Muhammedova talabalarga psixologning vazifalari, psixologik treninglar, talabalar bilan individual suhbatlar o'tkazish tartiblari xususida maslahatlar va tushuntirish ishlarini olib bordilar. Tadbirda fakultet dekani, dekan o'rinbosarlari va barcha 1-bosqich talabalari ishtirok etishdi. Tadbir qizg'in savol-javoblar asosida bo'lib o'tdi.



TIQXMMI matbuot xizmati